“TASDIQLAYMAN”

«Sho‘rtan GKM» MChJ
Bosh direktor o’rinbosari

_____ N. Xalilov

«18» _____4_____ 2024 y.

№:_____

"O'zbekneftgaz" AJ
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
074/062-4791
2024 "03" 12

“Sho‘rtan GKM” MChJ ehtiyoji uchun

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash yuzasidan

TEXNIK TOPSHIRIQ

ShGKM – 2024 yil

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi
Oziq-ovqat mahsulotlari
1.2 Sotib olishning asosiy maqsadi
Asos: Umumiy ovqatlanish sexining 2025 yilda xarid qilinadigan MTR lar uchun yillik buyurtmasi. Maqsad: "Sho'rtan GKM" MCHJ (keyingi o'rinlarda – Majmua) ning UOS, oshxonalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va ShGKM ishchi-xodimlarini issiq ovqat bilan ta'minlash.

2. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan texnik talablar

№	Mahsulot nomi	Asosiy texnik talablar		O'lchov birligi	Miqdori
1	**Karam**	Karam GOST 33952-2016 ga muvofiq saralangan, mexanik nuqsonlari,chirish,buzilish, zararkunandalar, hasharotlar, ko'rinadigan begona moddalar (tuproqlar) bo'lmasligi, shikastlar, o'sib chiqqan ildizpoyalar mavjud bo'lmasligi shart. Karam kattaligi 1,5 - 2 kg, barg to'qimasining yuzasi silliq, burishgan, rangi och yashil tusda bo'lishi va 2024 yil xosili bo'lishi shart.		kg	16200
2	**Kartoshka**	Kartoshka GOST 7176-2017 ga muvofiq birinchi nav, saralangan, 2024 yil hosili mexanik nuqsonlari, chirish, buzilish, zararkunandalar, hasharotlar, ko'rinadigan begona moddalar (tuproqlar) bo'lmasligi, shikastlar, o'sib chiqqan ildizpoyalar mavjud bo'lmasligi shart. Kartoshka 1 dona og'irligi 180-200 gr, maxsus 30 kg li qoplarda va 2024 yil xosili bo'lishi, shart.		kg	33600
3	**Oshqovoq**	Qovoqdoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar tuekimiga kiruvchi 13 turi ma'lum. Somsa, manti hamda boshqa taomlarga ishlatiladigan qizg'ich rangdagi mahsulot. Gost 7975-68 GOST talablariga mos va 2024 yil xosili bo'lishi shart.		kg	3600
4	**Lavlagi (qizil)**	Qizil lavlagi GOST 32285-2013 ga muvofiq, to'q qizil, saralangan diametri 80 mm, og'irligi 80 -100 gr, olib kelinishi shart. quyida ko'rsatilgan davlat standartlariga javob berishi, tuproqdan tozalangan bo'lishi, botanik navidagi shakli va rangiga o'xshashi, mexanik ta'sirlar natijasida va qishloq xo'jaligi zararkunandalari bilan zararlanmagan va 2024 yil xosili bo'lishi, sanitariya gigiyena talablariga to'liq javob berishi va me'yoriy talablar asosida maxsus qoplarda qoplangan bo'lishi shart.		kg	4800

MTRB xizmati
TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN

5	**Piyoz**	Piyoz GOST 34306-2017 ga muvofiq birinchi nav, saralangan, 2024 yil hosili mexanik nuqsonlari,chirish,buzilish, zararkunandalar, hasharotlar, ko‘rinadigan begona moddalar (tuproqlar) bo‘lmasligi, shikastlar, o‘sib chiqqan ildizpoyalar mavjud bo‘lmasligi shart. Piyoz kalibrovkasi 10 mmli, 1 donasi 170-200 gr va maxsus 30 kg li qoplarda va 2024 yil xosili bo‘lishi shart.		kg	18000
6	**Tarvuz**	Qovoqdoshlar oilasiga mansub,sersuv,sershira,etining rangi qizil,yumaloq mahsulot.		kg	3800
7	**Sabzi**	Qishloq xo’jalik mahsuloti,qizil rangda, tuproqdan tozalangan 2024 yil hosili bo’lgan sabzovat. Har-bir donasi og’irligi (150-200)gr bo’lishi shart. Sabzi (qizil,sariq) GOST 32284-2013 ga muvofiq birinchi nav, saralangan, mexanik nuqsonlari,chirish,buzilish, zararkunandalar, hasharotlar, ko‘rinadigan begona moddalar (tuproqlar) bo‘lmasligi, shikastlar, o‘sib chiqqan ildizpoyalar mavjud bo‘lmasligi shart. Sabzi buyi 10-12 sm, diametr 5-7 sm, maxsus 50 kg li qoplarda va 2024 yil xosili bo‘lishi, shart.		kg	22800
8	**Turp**	Turp GOST 32810-2014 ga muvofiq, yashil birinchi nav, donasi og‘irligi 250-300 gr, diametri 100 mm, 25 kgli maxsus qoplarda, is’temolga yaroqli bo’lishi, quyida ko’rsatilgan davlat standartlariga javob berishi, tuproqdan tozalangan bo’lishi,botanik navidagi shakli va rangiga o’xshashi,mexanik ta’sirlar natijasida va qishloq xo’jaligi zararkunandalari bilan zararlanmagan bo’lishi,sanitariya gigiyena talablariga to’liq javob berishi va me’yoriy talablar asosida maxsus qoplarda qoplangan va 2024 yil xosili bo’lishi hamda buyurtmachining haftalik ehtiyojiga qarab olib kelishi shart.		kg	2880
9	**Baqlajon**	Baqlajon GOST R56822-2015asosida bo'lishi,yangi yetishtirilgan, toq binafsha rangda ,maxsus poliprilin paketda bolishi, oliy navli markali bo'lishi kerak.		kg	2250
10	**Bulg’or qalampiri**	chuchuk garmdori — tomatdoshlarga mansub bir yillik sabzavot ekini.bo‘yi 8—8,5 sm, eni 4,5—5 sm, og‘irligi 60—115 g , yashil, ayrim navlari pishganda kizil rang GOST 34325-2017 talablariga mos bo’lishi shart.		kg	3150

3. MTRlarni qabul qilish tartibi

3.1 MTRlarni majmua tegishli oshxonalar oshpazi va mutaxassislari tomonidan belgilangan tartibda buyurtma shakllantiriladi.
3.2 Ijrochi mazkur texnik topshiriqqa mos sifatda oliy navli sifatli MTRlarni olib keladi.
3.3 Majmua mutaxassislari (oshpazlar) tomonidan yetkazib berilgan MTRlar mahsulotini sifati va miqdori tekshirib ko'riladi, so'ngra ijrochi va majmua mutaxasislari tomonidan kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.
3.4 Yetkazib berilgan MTRlar sifati bo'yicha e'tirozlar bo'lganda, ijrochi o'z hisobidan MTRlar qaytarib olib ketishi sifatli mahsulotlarga almashtirib olib kelishi shart.

4.MTRlarni yetkazib berishda buyurtmachiga texnik va boshqa hujjatlarni topshirishga qo'yiladigan talablar

Tovarga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:
4.1 -"Ijrochi" tomonidan olib kelinadigan MTR mahsulotlariga muvofiqlik sertifikati va sanitariya – epidemiologik xulosasiga ega bo'lishi shart.
4.2 - Tovarlarning bahosi yetkazib berish xizmatini o'z ichiga oladi.
4.3 -"Ijrochi" tomonidan olib kelinadigan mahsulotlar maxsus transportda yetkazib berilishi shart.

5. IJROChIGA TALABLAR

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi lozim:
5.1 Tugatilish yoki bankrotlik arafasida bo'lmasligi;
5.2 Majmua bilan sudlashuv o'tkazgan va sudlashuv jarayonida bo'lmasligi;
5.3 Noinsof yetkazib beruvchilar reestrida bo'lmasligi;
5.4 Fitokarantin sertifikati mahsulot bilan birga olib kelinishi shart.

6. TO'LOV ShARTLARI

Tomonlar o'rtasida kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng 10 kalendar kunida ijrochi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li orqali to'lov amalga oshiriladi.

7.YETKAZISH JOYI

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Sho'rtan qo'rg'oni 180300.

8. YETKAZISH MUDDATI

Shartnoma tuzilganidan so'ng (kunlik, haftalik, oylik) buyurtmachi talabiga ko'ra yetkazib berilishi shart.

Ishlab chiqdi
UOS texnologi _____ **G'. Eshto'xtarov**

UOS tovorshunosi _____ **J.Suvanov**

Kelishildi:
Ishonchlilikni boshqarish xizmati boshlig'i: _____ **T. Diyorov**

UOS boshlig'i _____ **A.Latipov**

UOS mudiri _____ **Z.Azizov**

UOS mudiri _____ **Sh. Xasanov**

UOS mudiri _____ **Z. Chuliyev**

MTRBX muhandisi: _____ **S. Qorayev**